




JOURNAL OF CONTEMPORARY WORLD STUDIES



VOLUME | 4 ISSUE | 8 | JANUARY | 2026



JCWS


BO‘LAJAK O‘QITUVCHI FAOLIYATINI SHAKLLANISHIDA KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARNING O‘RNI

¹ *Djumanov Sherali Zakirovich*, ² *Galimov Almaz Mirzanurovich*

¹ O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali, Psixologiyasi kafedrasida katta o‘qituvchisi

² Qozon (Volga) federal universiteti psixologiya va ta’lim instituti professori

e-mail: sherali.zhumanov.83@bk.ru



ANNOTATION:

Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchi faoliyatini shakllantirishda kommunikativ qobiliyatlarning roli va o‘rni yoritiladi. Maqoladan bo‘lajak mutaxassislarning kommunikativ qobiliyatni shakllantirishni takomillashtirish muammosi bilan shug‘ullanuvchilar foydalanish mumkin.

KEYWORDS:

Bo‘lajak o‘qituvchi, shaxs, shakllantirish, kommunikativ qobiliyat, boshlang‘ich sinf, axborot, ketma-ketlik, dolzarblik, ijtimoiy zaruratlik.

Accepted Date:

January 25, 2026,

Published Date:

January 31, 2026

Journal Website: <https://d-pressa.com/index.php/jcws/>

License



This work is licensed under a [Creative Commons Attribution-NonCommercial-NoDerivatives 4.0 International License](https://creativecommons.org/licenses/by-nc-nd/4.0/).

KIRISH

Ma'lumki, ilmiy tadqiqot jarayoni va uning yechimlarini izlash natijalari jamiyat taraqqiyoti rivojining asosini tashkil etadi, ya'ni ular orqali taraqqiyot sur'ati tezlashadi. Bunday taraqqiyot sur'atini esa umummilliy tadqiqotlar yordamida ta'minlash mumkin bo'ladi, va ular xususiy ilmiy tadqiqotlar uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Umumilmiy tadqiqotlar inson aqliy faoliyatining ma'lum (aniq) maqsadga yo'naltirilgan ijodiy harakatlar majmuasidan iborat bo'lib, hodisa va narsalar o'rtasidagi aloqadorlik hamda taraqqiyot qonuniyatlarini yaratishga mo'ljallangan ijodkorlikdir.

Bundan ko'zlangan maqsad hodisa va jarayon to'g'risida yangi bilimga ega bo'lish, uni takomillashtirish va ular asosida qo'yilgan muammo bo'yicha yangi metodologiya, texnika, texnologiyalar va shu kabilarni yaratishdan iboratdir.

Jumladan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash borasidagi global tendentsiyalar pivojlangan demokpatik davlat va fuqarolik jamiyati bappo etish talablapiga mos ravishda oliy ta'lim muassasalari bo'lajak o'qituvchilarni kommunikativ qobiliyatlarini shakllantirish, ularda muloqot madaniyati, empatiya, notiqlik mahorati kabi kasbiy va shaxsiy sifatlarni rivojlantirishni taqozo etmoqda.

Jamiyat rivojlangan sari undagi insonlar o'rtasidagi munosabatlar tizimi shakllanib borgan va bu munosabatlar sodir bo'layotgan o'zgarishlarga bog'liq ravishda o'ziga xos xarakter kasb etadi. Bu jarayonning ahamiyatli belgilaridan biri shuki, sodir bo'layotgan o'zgarishlar o'qituvchi faoliyatigaham o'z ta'sirini qo'rsatadi. Shu sababli ham pedagogik faoliyatning mazmuni ko'p jihatdan o'qituvchining o'ziga, ya'ni atrofda gilariga,

o'z-o'ziga, umuman hayotga bo'lgan munosabatlariga bog'liq bo'ladi.

ASOSIY QISM

Ma'lumki, pedagogik faoliyatda kommunikativ munosabatlar, ularning xususiyatlari boshqalar bilan bo'ladigan muloqot jarayonida shakllanadi va namoyon bo'ladi. Pedagogik faoliyatda insonlar bilan munosabatlarni tashkil qilish, ularni yuragiga yo'l topa olish, ularda o'ziga nisbatan moyillik uyg'otish har bir pedagog uchun juda muhim. Bunday malakalar hayotdagi va kasbiy muvaffaqiyatlarning asosi hisoblanadi.

Shu sababli ham mazkur maqolaga bo'lajak o'qituvchi shaxsini shakllantirishda kommunikativ muloqotlarning o'rni va ahamiyatini yoritishni maqsad qilib oldik.

Pedagogik faoliyatda ta'lim oluvchilarnimuloqotga chaqirish, ushbu jarayonda to'g'ri yo'l topa bilish, ular bilan pedagogik nuqtai-nazardan maqsadga muvofiq o'zaro aloqa bog'lashga va muloqotga kirisha olish har bir o'qituvchidan o'zaro faol muloqotlarga tegishli ko'nikma va malakalarga ega bo'lishni talab etadi. Shuning bilan birga har bir o'qituvchi o'zini pedagogik faoliyatidagi muvoffaqiyati uchun muloqotga kirishish, shaxslararo munosabatlarni to'g'ri tashkil etish, ta'lim oluvchilarni va insonlarni o'z tarafdorlariga aylantirish, fikrini boshqalarga to'g'ri yetkaza olish, o'zgalarni tushunish borasidagi psixologik bilim va malakalarga ega bo'lishi o'ta muhim hisoblanadi.

Ta'lim beruvchi uchun pedagogik faoliyatdagi eng zarur sifatlardan biri – bu o'z xatti-harakatlarini boshqarish bo'lib, bu qobiliyat o'qituvchiga turli xil vaziyat va sharoitlarda o'zini qanday tutish, vaziyat talablaridan kelib chiqqan holda muloqotni tashkil qilish, suhbatdoshning individual psixologik xususiyatlarini bilib, vaziyatga to'g'ri ta'sir ko'rsatish va natijada o'z

rejalashtirgan maqsadiga erishish imkonini beradi. Bu esa, ta'lim beruvchi o'z hayotida kommunikativ bilimlardan, ayniqsa, pedagogik faoliyatda ta'lim oluvchilar bilan muloqotda qanchalik unumli foydalana olsa, shunchalik, pedagogik faoliyatni o'zi uchun ma'qul tarzda tashkil etish imkoniga ega bo'ladi, unga xulosaviy fikrni qayd etishga asos bo'ladi. Har bir ta'lim oluvchi qanchalik o'ziga xos, individual bo'lmasin, baribir ta'lim oluvchilar bir-birini to'g'ri tushunishlari uchun muloqot muvaffaqiyatli bo'lishi uchun ular samimiy bo'lishlari lozim. Shunday ekan, hozirda o'qituvchilarning yuqori kasbiy tayyorgarlikka, kommunikativ qobiliyat borasida ham pedagogik mahoratga, yuqori intellektual salohiyatga, yuksak ma'naviy - axloqiy fazilatlarga, mafkura borasida chuqur dunyoqarashga ega bo'lishi, ta'lim - tarbiya ishlarida innovatsion texnologiyalardan samarali foydalana olishlarini davr talab etmoqda.

Ayniqsa, bo'lajak o'qituvchilardagi kommunikativ qobiliyatlar ularning kasbiy kompetentligining tarkib topishida muhim didaktik asos bo'lib hisoblanadi.

Shuningdek, ta'lim - tarbiya jarayoni sifati va samaradorligini oshirish ham o'qituvchidagi kommunikativ qobiliyatining mustahkam tarkib topganligiga bog'liqdir.

Ma'lumki, kommunikativ qobiliyat – o'qituvchining ta'lim oluvchilar va ularning ota-onalari, shuningdek, hamkasblari hamda ta'lim muassasalari rahbarlari bilan pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq munosabatlarga kirishish mahoratidir. Shu sababli ham zamonaviy o'qituvchi oldiga pedagogik jarayonda ta'lim oluvchilar bilan o'zaro faol muloqotda bo'lish mahorati va san'atiga ega bo'lishdek muhim vazifani qo'yimoqda. Bu vazifa o'qituvchilarni muomala va muloqot etikasiga o'rgatishni har qachongidan ham dolzarb qilib ko'yimoqda.

Ushbu sohada olib borgan izlanishlarimiz natijalari bo'lajak o'qituvchining kommunikativ qobiliyatini shakllantirishni quyidagidek ifodalash imkoniyatini yaratadi:

O'qituvchining **kommunikativ qobiliyati** – bu eng avvalo, o'qituvchining samimiy va interfaol muloqotda bo'lishi negizida muloqotni tashkil etishning optimal variantini tanlay olishi hamda ushbu jarayonda samaradorlikka erishish uchun o'qituvchining ta'lim oluvchilarga beriladigan topshiriqning mazmun - mohiyatini tushuntirishi, topshiriqlarni bajarishga oid ko'rsatma va tavsiyalar bera olishi, qaralayotgan jarayon bo'yicha erishiladigan natijalar haqida ma'lumot berishlarini bir tomonlama va lozim topilganda ikki tomonlama muloqotlar asosida amalga oshirish jarayonlari majmuidan iboratdir.

Jumladan quyidagilar ham keltirilgan fikrimizga dalil bo'la oladi. Hozirgi o'qituvchilarni kommunikativ bilimdonlikka o'rgatish, ularda zarur kommunikativ malakalarni hosil qilishga katta ahamiyat berilmoqda va ular quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'lmoqda:

- ta'lim muassasalarining o'qituvchisi kommunikativ munosabatning o'ziga xos uslubiga egaligi;

- boshlang'ich sinf o'qituvchisi bilan o'quvchilari kommunikativ munosabatlarini uzluksiz ta'lim tizimining alohida bir pog'onasi ekanligi;

- axborotlar qamrovi va hajmining uzluksiz o'sib borishi o'qituvchi bilan o'quvchilar kommunikativ munosabatlar shakllariga o'zgartirishlar kiritishga ehtiyoj sezilganligi;

- o'qituvchi shaxsiga, kasbiy bilimdonligiga qo'yiladigan mezon va talablarning keskin o'zgarayotganligi;

- o'quvchilarning dunyoqarashi bilan o'qituvchilarning dunyoqarashida

an'anaviy tafovutlarning ortib borayotganligi;

- o'qituvchi bilan o'quvchilarning ta'limga oid tutgan o'rinlarida o'zgarishlar ro'y berayotganligi;

- ta'lim samaradorligini ta'minlashda o'qituvchi bilan o'quvchilar kommunikativ munosabat usullariga o'zgartirishlar kiritish zarurligi;

- maktab va oila hamkorligi o'quvchi tarbiyasidagi ahamiyati.

Demak, zamonaviy o'qituvchida intellektual salohiyat, pedagogik mahorat bilan birga kommunikativ munosabatga o'rgatish hozirda nihoyatda zarur, degan fikrga kelish mumkin va bularga oid masalalarni hal qilish orqali "Interfaol muloqotlar maydoni"da bemalol faoliyat yurita oladigan innovatsion jarayonga kirib boruvchi bo'lajak o'qituvchini tayyorlashga erishiladi. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilar kommunikativ qobiliyatlarning mustahkam shakllanganligini zamonaviy o'qituvchilarga qo'yilgan asosiy talablaridan biri, desak o'rinli bo'ladi.

Tadqiqotimizning ushbu qismida keltirilgan bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ qobiliyatini shakllantirish muammosining dolzarbligi va uning ijtimoiy jihatdan zaruriyligi hamda mazkur muammoni hal qilishning pedagogik - psixologik jihatdan asoslanishlariga tayangan holda qayd etish mumkinki, bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ qobiliyatini shakllantirish texnologiyalarini takomillashtirishda quyidagidek vazifalarni hal qilishga to'g'ri keladi va bu orqali o'qituvchi shaxsini shakllantirishda kommunikativ qobiliyatning o'rnini asoslashga ham erishamiz:

- Bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ qobiliyatini shakllantirish muammolarini hal qilishga bag'ishlangan ishlarni ilmiy - metodik jihatdan chuqur tahlil qilish va ular natijasida shakllangan

fikr (g'oya)lar asosida bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ qobiliyatini takomillashtirish yo'llarini ilmiy - amaliy jihatdan asoslab olish;

- Bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ qobiliyatini takomillashtirishni modellashtirish va bundagi tashkiliy - tuzilmaviy modelning har bir tarkibiy qismlari (parametrlari, ko'rsatgichlari) orasidagi aloqadorlik qonuniyatlarini ochib berishga harakat qilish. Bunda kommunikativ qobiliyatga oid ichki va tashqi ta'sirlar, muloqot turlari va shakllarini hisobga olish zarur;

- Ishlab chiqilgan tashkiliy - tuzilmaviy model negizida bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ qobiliyatini takomillashtirishga oid yangilangan ta'lim mazmunini shakllantirish va ularni amaliyotga joriy etish metodlarini ishlab chiqish hamda ularga mos vositalarni tayyorlash;

- Bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ qobiliyatini takomillashtirishning innovatsion metodikasini ishlab chiqish va ularni mavzu (fan)larni o'rganishda joriy etish;

- Bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ qobiliyatini takomillashtirishning intellektuallashtirilgan tizimini ishlab chiqish;

- Bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ qobiliyatini tarkib topganligini aniqlash va baholash mezonini ishlab chiqish hamda ulardan amaliy faoliyatda keng foydalanishga erishish;

- tadqiqot bo'yicha tajriba – sinov ishlarini tashkil etish va ular natijalarini chuqur (har taraflama) tahlil etish negizida bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ qobiliyatini yanada takomillashtirishga oid uslubiy tavsiyalar tizimini shakllantirish.

Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ qobiliyatlarini takomillashtirishni

muammosini yechimini mantiqiy izchil ketma - ketlikda olib borish kerak, degan xulosaga keldik. Ularni biz quyidagi ketma-ketlikdagidek loyihalashtirib oldik:

•Bo'lajak o'qituvchini kommunikativ qobiliyatini shakllantirishning didaktik asosi dastlabki bosqich (1 kurslar uchun);

•Bo'lajak o'qituvchini kommunikativ qobiliyatini shakllantirish bosqichi (2 kurslar uchun);

•Bo'lajak o'qituvchini kommunikativ qobiliyatini takomillashtirish bosqichi (3 kurslar uchun);

•Bo'lajak o'qituvchini kommunikativ qobiliyatini joriy etish bosqichi (4 kurslar uchun).

Ushbu ketma-ketlik bo'lajak o'qituvchi shaxsini shakllantirishning mustahkam didaktik asosi va algoritmik ketma-ketlik bo'la oladi hamda ular asosida qaralayotgan muammoning optimal yechimini topishga keng imkoniyatlar yaratiladi.

Mazkur tadqiqot natijalari universal xarakterga ega bo'lib undan oliy yurtlari talabalari, uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida faoliyat ko'rsatuvchi mutaxassislar, muammoga qiziquvchi tadqiqotchilar va boshlang'ich ta'lim yo'nalishidagi ijodiy ishlarda ham foydalanish mumkin.

XULOSALAR

Mazkur tadqiqot ishida xulosa o'rnida ta'kidlash mumkinki, bo'lajak o'qituvchidagi kommunikativ qobiliyatning mukammal shakllanishi uning keyingi kasbiy faoliyatida o'qituvchi sifatida o'zini namoyon qilishda mustahkam didaktik asos va shaxsiy faoliyatini optimallashtirishda harakatlantiruvchi kuch bo'lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Каримова В.М., Акрамова Ф.А., Очилова Г.О., Мусаханова Г.М. Педагогика психология. Ўқув қўлланма – Т-: ТДИУ, 2010 - 393 б.

2. Назарова Қ.П. Бошланғич синф ўқувчиларининг коммуникатив саводхонлигини таъминлашнинг дидактик асослари // пед. фан. номз. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. — Т.: 1999. 245-б.

3. Zakirovich, Djumanov Sherali. "TALABALARDA KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARNI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI." *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research* (2022): 543-545.

4. Djumanov Sh.Z. Talabalarni kommunikativ qobiliyatlarini shakllantirish va kasbiy muomala jarayoniga tayyorlash. *Ўзбекистонда психологияни ривожлантириш муаммолари: назария ва амалиёт уйғунлиги*, 112-115.

5. Джуманов, Ш., & Холикулова, С. (2022). Талабаларда коммуникатив қобилиятларни шакллантириш имкониятлари. *Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы*, 1(1), 513-515.

6. Shovxiyev Luqmoniddin Boynazar o'g'li, Murotmusaev Komiljon Buriboyevich, Yuldashev Sheryigit Ergashovich. "PSCHOLOGY OF MODERN LEADERSHIP AS AN IMPORTANT PHENOMENON OF EFFECTIVE MANAGEMENT" *Intenational Journal of Early Childhood Special Education ISSN:1308-5581* 2022 yil

7. Shovxiyev L. (2021). Ursachen der Entstehung von psychischen Krisen. "International Simposium of Young Scholars" Xalqaro Amerika konferensiyasi. (514-516 betlar)

8. Shovxiyev, L., & Sharafitdinov, A. (2022). Psixologiyada tush korish tilsimlari. Zamonaviy Innovatsion Tadqiqotlarning Dolzarb Muammolari Va Rivojlanish Tendensiyalari: Yechimlar Va Istiqbollar, 1(1), 485–488. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/zitdmrt/article/view/5204>

9 Balibekova, G., & Shovxiyev, L. (2022). Muloqot insonlarga ta'sir otkazish vositasi sifatida. Zamonaviy Innovatsion Tadqiqotlarning Dolzarb Muammolari Va Rivojlanish Tendensiyalari: Yechimlar Va Istiqbollar, 1(1), 518–520. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/zitdmrt/article/view/5229>

10. Sharafitdinov, A., & Shovxiyev, L. (2022). Hissiy intellekt va uning shakllanishi. Zamonaviy Innovatsion Tadqiqotlarning Dolzarb Muammolari Va Rivojlanish Tendensiyalari: Yechimlar Va Istiqbollar, 1(1), 437–440. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/zitdmrt/article/view/5161>

11. Alibekov, D. (2020). Sociophilosophical basis of educational system development. ISJ Theoretical & Applied Science, 10 (90), 24-26. SoI: <http://s-o-i.org/1.1/TAS-10-90-6> Doi: <https://dx.doi.org/10.15863/TAS.2020.10.90.6>

12. Alibekov, D. (2021). SOTSIALNO-FILOSOFSKIE OSNOVY RAZVITIYa SISTEMY OBRAZOVANIYa. *Jurnal muziki i iskusstva*, 2(2).